

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО  
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**“СЕРВИС СОҲАСИ ИҚТИСОДИЁТИ” КАФЕДРАСИ  
КАФЕДРА «ЭКОНОМИКИ СФЕРЫ СЕРВИСА»**

**“ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ СЕКТОР ШЕРИКЛИГИ  
АСОСИДА ТУРИЗМ СОҲАСИДА КЛАСТЕРЛАРНИ  
ШАКЛЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ”**

**Республика илмий-амалий анжумани  
ТЕЗИСЛАР ТЎПЛАМИ**

**СБОРНИК ТЕЗИСОВ  
Республиканской научно-практической конференции**

**“ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КЛАСТЕРОВ В  
ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ НА ОСНОВЕ  
ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА”**

**“Дурдона” нашриёти  
Бухоро – 2019**

**Давлат-хусусий сектор шериклиги асосида туризм соҳасида кластерларни шакллантириш истиқболлари**

**Дастурий қўмита:** и.ф.д. О.Х. Хамидов, и.ф.ф.д. О.С. Қаҳҳоров, и.ф.н. Д. Ш. Явмутов, и.ф.н. С.У. Таджиева, и.ф.д. Б.Н. Навруз-Зода, и.ф.н. Н.С.Ибрагимов, и.ф.н. Ҳ.Р. Ҳамроев, А.Ж. Абдуллоев, и.ф.н. С.С. Рўзиев, и.ф.ф.д. Г.Р. Хидирова, О.Х.Азимов, Б.И. Адизов.

**Таҳрир хайъати:** и.ф.ф.д. О.С. Қаҳҳоров, и.ф.д. Б.Н. Навруз-зода, О. Жумаев, Г.Т. Зарипов, и.ф.н. Д. Ш. Явмутов, и.ф.н. С.У. Таджиева, и.ф.н. Н.С.Ибрагимов, А.Ж. Абдуллаев, и.ф.ф.д. Г.Р. Хидирова

“Давлат-хусусий сектор шериклиги асосида туризм соҳасида кластерларни шакллантириш истиқболлари” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани тўпламига етакчи олимлар, профессор-ўқитувчилар, катта илмий ходим-изланувчилар, мустақил изланувчилар, магистр ва бакалавр талабалари илмий тадқиқот ишлари доирасида илмий мақолалари ва маъруза тезислари киритилган. Мазкур анжуман давлат-хусусий сектор шериклиги асосида туризм соҳасида кластерларни шакллантириш йўлларини аниқлаш мақсадида Бухоро давлат университетида Иқтисодиёт ва туризм факультети “Сервис соҳаси иқтисодиёти” кафедрасида Давлат илмий-техник дастурлари доирасида бажарилаётган ОТ-Ф1-04(08)-рақамли *“Рақобатбардош туристик ҳудуд ва кластерларни шакллантириш асосида Ўзбекистонда туризмни давлат миқёсида барқарор ривожлантиришнинг стратегик йўналишларини ишлаб чиқиш; Кооперация ва интеграция муносабатлари асосида фермер хўжаликларида рақобатбардош маҳсулотлар етиштиришнинг мақбул моделларини ишлаб чиқиш”* фундаментал тадқиқотлар лойиҳаси доирасида ташкил этилиб, анжуман материаллари тузилган ва нашр этилган.

**Тўплам и.ф.д., профессор Б.Н. Навруз-Зода ва и.ф.н. Ибрагимов Н.С. умумий таҳрири остида чоп этилди.**

Тўплам Бухоро давлат университети илмий-техникавий кенгаши томонидан чоп этишга тавсия этилган.

**Такризчилар:**

1. Азимов Б.Ф. - БухМТИ Менежмент кафедраси доценти, и.ф.н.
2. Мўминов Х.И. –Бухоро Давлат университети “Иқтисодиёт” кафедраси доценти, и.ф.н.

**Мазкур тўпламга киритилган мақолалар ва маъруза тезисларининг мазмуни, ундаги статистик маълумотлар, саналарнинг тўғрилигига ҳамда танқидий фикр-мулоҳазаларга муаллифларнинг шахсан ўзлари масъулдир.**

2. Xidirova G.R. "Buxoro Davlat Universiteti ilmiy axboroti" jurnali. "Mintaqaviy turizmni rivojlantirish ilg'or tajribalari" maqola. -2018 yil 4-son.-241-b.
3. Buxoro viloyati Turizm rivojlantirish departamenti ma'lumotlari. - 2018 yil
4. Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi matbuot xizmati ma'lumotlari. Elektron manba  
[ <https://uzbektourism.uz/uz/newnews/view?id=48>]
5. Kun.uz jurnalisti Lola Rahmonboyevaning maqolasi. Elektron manba  
[<https://kun.uz/uz/news/2019/02/25/buxoro-deklaratsiyasi-ziyosat-turizmi-xalqaro-forumi-yakunlari>]
6. <https://www.trt.net.tr/uzbek/turk-dunyosi/2019/02/22/buxoroda-o-tayotgan-birinchi-ziyosat-turizmida-tashrif-buyuruvchilar-soni-ortmoqda-1150771>

## **O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**

**Akhrorova Nilufar Uktamovna, magistrant, BuDU**

***Annotation:** Uzbekistan is presently going through the pillars of developing tourism sustainably with the help of extended opportunities issued by the authority. Nowadays, it is one of dominant missions to diversify types of tourism in the country, especially, youth tourism should be developed to a great extent. This article is intended to show the current issues on youth tourism in the country together with its possible solutions.*

***Annotatsiya:** Hukumat tomonidan joriy etilgan keng miqyosdagi islohotlar bois O'zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirish yo'llari amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda mamlakatda turizm turlarini xilma-xillashtirish eng asosiy vazifalardan biridir, shu jumladan, yoshlar turizmini keng qamrovli rivojlantirish maqsadga muvofiq. Maqolada mamlakatdagi yoshlar turizmi borasidagi muammolar va uning ehtimoliy yechimlari berilishi maqsad qilib olingan.*

***Key words:** youth tourism, tourism infrastructure, diversification of tours.*

***Tayanch so'zlar:** yoshlar turizmi, turizm infratuzilmasi, turlar xilma-xilligi.*

Hukumat tomonidan yaratilgan so'nggi o'zgarishlar va imkoniyatlar asosida, O'zbekistonning turistik salohiyati va imkoniyatlari keng imkoniyatlar orqali butun dunyo sayyohlik sektori e'tiborini jalb qilmoqda. Raqamlar bilan ifodalaganda buni aniq ko'rish mumkin: yurtimizga tashrif buyurgan sayyohlar soni miqdori 2017-yilga nisbatan 2018-yilda 2,3 barobarga oshgan (2017-yilda 2847,9 ming nafar, 2018-yilda esa 6433 ming nafar) [1]. Bu bir vaqtning o'zida O'zbekistonda ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan islohotlar sayyohlikning ko'plab sohalarida o'z yutuqlarini namoyish qilayotganidan dalolat beradi.

Ta'kidlash kerakki, turizmning eng istiqbolli sohalaridan biri bo'lgan "Yoshlar turizmi" hisoblanadi va uning birmuncha rivijlanishiga qaramasdan, hozirgi davrdagi o'sish darajasi yuqori emas. Jahon turizmi tarkibiga nazar soladigan bo'lsak, turizmning boshqa turlari qatorida Yoshlar turizmi mazkur industriyaning asosiy tarmoqlaridan biriga aylanib ulgurdi. UNWTO ma'lumotlariga ko'ra, faqatgina 2010-yilda yoshlar tomonidan 190 millionta xalqaro sayohatlar amalga oshirilgan, 2020-yildan keyin esa bu raqam har yili taxminan 300 millionni tashkil etadi [2]. Bundan tashqari, boshqa segmentlarga qaraganda kishi boshiga kam mablag' sarflanishi mumkinligiga qaramasdan, ommaviy sayohat qilinganda tushadigan tushumning yuqori ekanligi ham ko'rsatib o'tilgan. UNWTO prognozicha, 2020-yilga qadar yosh sayohatchilar soni 370

millionga yetadi va sayohat uchun qilinadigan umumiy xarajatlari 400 milliard AQSh dollarini tashkil qilishi mumkin [3].

Yuqorida keltirilgan raqamlarni inobatga olgan holda aytish mumkinki, O'zbekistonda yoshlar turizmining barqaror rivojlanishi ko'plab sohalarda, masalan, iqtisodiyot va turizm, ta'lim, xorijiy va qo'shni davlatlar yoshlari o'rtasidagi hamkorlik bilan birgalikda taraqqiy etishiga olib kelinishi mumkin. Shubhasizki, bu o'z navbatida, mamlakatda barqaror turizmni rivojlantirish ustunlariga olib kela oladi. Yoshlar turizmining go'llab-yashnashi uchun keng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan ko'plab vazifalarni amalga oshirish zarur. Fikrimizcha, avvalo, yoshlar sayohati ommaviy tus olishi uchun quyidagi imkoniyatlar shakllantirilishini inobatga olish maqsadga muvofiq:

- Yoshlar va talabalar uchun turar joy, turmahsulotlar, muzey chiptalarini maxsus va hamyonbop narxlar joriy etish;
- Sayohatni samarali va to'g'ri rejalashtirishga yordam beradigan qulay transport infratuzilmasi va bronlashtirish tizimini shakllantirish;
- Ijtimoiy tarmoqlarda mamlakatda yoshlarning ommaviy sayohati g'oyalarini ilgari surish;
- Boriladigan destinatsiyalar haqida ma'lumotlarning yaroqliligini va yangilanganligini muntazam ravishda ta'minlash;
- Yangilikka ishtiyoqmand yoshlar uchun mamlakatimizning hali ochilmagan destinatsiyalarida yoshlar budjetiga mos turli xil ekstremal turlar shakllantirish;
- Muhimrog'i, turfa xildagi sayohatlar orqali mamlakat bo'ylab ommaviy yoshlar sayohatini amalga oshirish.

Mazkur imkoniyatlarni yaratish orqali biz O'zbekistonda yoshlar turizmining yuqori darajada rivojlanishiga erishishimiz mumkin. Shu o'rinda savol tug'iladiki, barqaror taraqqiyotga qanday yetishishimiz mumkin? Aniqki, mamlakat ichida yoshlar turizmi rivoji uchun, avvalo, uchun yosh avlodning ehtiyojlari va talablarini to'liq anglashimiz, rivojlanishga to'siqlik qilayotgan omillarni aniqlash, talablarga mos turlar shakllantirib taklif etishimiz zarur, shu bilan birgalikda mamlakat ichidagi yuzaga kelgan ommaviy yoshlar sayohati mamlakat chegaralaridan o'tib, xorij va qo'shni davlat yoshlarini ham jalb qilishiga olib keladi, bu esa barqaror Yoshlar turizmi rivojiga olib keladi.

Demak, to'siqlarni aniqlab olish zarur. Yoshlar turizmining mamlakatdagi joriy rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar bu – *mablag'* va *infratuzilma*. Aksariyat yosh sayohatchilar oliy o'quv yurtlari, kollej va litseyda o'qiyotgan talabalardir. Daromad manbai bo'yicha kollej, litsey o'quvchilari ota-onalarining daromadiga butunligicha tayanadi, ammo OTM talabalar esa qisman (ya'ni kam miqdorda bo'lsa ham stipendiya olishadi). Shuningdek, ular sayohat qilish uchun pullarini uzoq vaqt davomida tejashadi. Sayohatlari xarajati miqdori o'z-o'zidan ota-onalarning daromadi va ularning mablag'lari miqdoriga bog'liq bo'lishi mumkin va bu ko'rsatkichdan yuqori bo'lishi mumkin emas. Bu yorlarni cheklangan budjeti bilan ularning ehtiyojlariga erishish uchun sayohatlar narxini arzonlashtirishga yo'naltiradi. Shu sababli, xarajatlarni kamaytirish uchun turar joy va transport uchun imtiyozli narxlar bo'lishi kerak. Bunday narxlarni chegirmalar, mavsumiy yoki mavsumdan tashqari chiptalarni taklif qilish orqali o'rnatish mumkin.

Ta'kidlash joizki, oliy o'quv yurtidagi talabalar Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent singari taniqli shaharlarga, o'z guruhdoshlari bilan arzon narxlar shakllantirib ko'pincha o'zlari mustaqil ravishda rejalashtiradilar. Tarixiy joylardan tashqari, yoshlar kamroq taniqli joylarga, tog'larga yoki ba'zi chekka tabiiy joylarga sayohat qilishni

xohlashadi. Yoki qorli tog'larda yoki cho'llarda ekstremal tadbirlarni taklif qilish, tabiiy qo'riqxonalar ularni to'g'ridan-to'g'ri jalb qilishi mumkin. Biroq noqulay yo'l sharoitlari va qimmat narxdagi turar joylar talabalar uchun qiyinchilik tug'diradi. Misol keltiradigan bo'lsak, Samarqanddagi Mingarcha nomli tabiiy maskan o'zining go'zal tabiati va toza atmosferasi bilan yoshlarning e'tiborini tortadigan yuqori imkoniyatlarga ega, afsuski, to'la shakllantirilmagan infratuzilma, xususan, transport tizimi, yo'llarning holati va yashash uchun joy yo'qligi ushbu sayohlik yo'nalishni yoshlarning ko'proq kashf etadigan joylarga tashrif buyurish istagiga to'sqinlik qiladi. O'zbekistonda shunga o'xshash imkoniyatlarga ega bo'lgan juda ko'plab joylar mavjud, ammo shart-sharoit va tunash uchun qulayliklar yetarlicha shakllantirilmagan. Bunday holda, tegishli infratuzilmani shakllantirish juda muhim rol o'ynaydi.

Mazkur sektorning xalqaro assotsiatsiyalar bilan kengaytirilishi O'zbekistonda turizm turlarini diversifikatsiyalashga olib keladi va O'zbekiston sayyohlik bozorining kelajagini kafolatlaydi. Boshqa mamlakatlarning yosh onglarini jalb qilish uchun Yoshlar festivallari, Barqaror Yoshlar Turizmi konferentsiyalari, Yoshlar Turizm Uyushmalarini tashkil etish orqali yoshlarni birlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu orqali biz dunyoning chet ellik yoshlari orasida mamlakatimizning salohiyati va imkoniyatlarini sayyohlik yo'nalishi sifatida tarqatish, bilim almashish, global yoshlar turizmining O'zbekistonga doimiy tashriflarini tashkil etishimiz mumkin. Statistika ko'ra, 2018-yilda ta'lim va turizm maqsadida O'zbekistonga kelganlar soni mos ravishda 0,2% va 7,1% ni tashkil etdi [1]. Ushbu ko'rsatkichning o'sishi ayniqsa MDH mamlakatlari tomonidan kelgan sayohatchilar sonida kuzatilgan, bu esa mazkur bozorlarni nishonga olish orqali yoshlar turizmini ko'paytirish mumkinligini anglatadi.

Mamlakatimiz barqaror yoshlar turizmini rivojlantirish uchun uzoq yo'lni bosib o'tishiga qaramay, imtiyozlar yanada foydali bo'lishi mumkin. Iqtisodiy istiqbol nuqtai nazaridan, birinchi navbatda, bu mavsumiylik muammolarni hal qilishga yordam beradi, ya'ni turizm sektoridan hukumat iqtisodiyotiga tushadigan daromad doimiy bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, bu kam ma'lum bo'lgan joylarning kashf etilishi va tarqalishiga va mamlakatimizdagi turistik faoliyatni diversifikatsiya qilishga yordam beradi. Ichki yoshlar turizmi barqaror shakllantirilsa, u global yoshlar turizmi sifatida xalqaro sayohatlarga aylanishi mumkin. Ijtimoiy istiqbolga kelsak, mamlakatimizda yoshlarning g'ayratlari va istaklari rivojlanayotgan shaklda shakllanishi mumkin, ular o'z mamlakatlari haqida ko'proq ehtiyotkorlik bilan qarashlari, dunyoqarashlarini kengaytirishlari, xalqaro nuqtai nazardan bilimlar almashishlari mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Туризм в Узбекистане. То'plam. O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish qo'mitasi. 2018. – 19-22 b.
2. The power of youth travel, UNWTO and WYSE, Volume II. Global Edition. 2012. – 6 b.
3. Global Report on The Power of Youth Travel, UNWTO, Volume thirteen. Global Edition. 2016. – 10 b.

## **QISHLOQ HUDUDIDA AGROTURIZMNI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI**

**Butanova Dilnoza, UrgDU o'qituvchisi**

Barchaga ma'lumki, turizm hozirda daromadli iqtisodiyot tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Shu tufayli turizmni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining yuksalishiga

	истикболлари	
Каримжанова Р.М.	Наманган вилоятида мева сабзавотларни ишлаб чиқариш ва сотишда маркетинг сегментацияси	124
Хонкелдиева Г.Ш.	Туристик хизматлар кластерларини бошқаришда самарали механизмлардан фойдаланиш йўллари	127
Хонкелдиева К.Р.	Туристик хизматлар кластерларини бошқаришда самарали механизмлардан фойдаланиш йўллари	130
Жумаева Ш.Б. Йўлдашев У.Х.	Тошкент вилояти Бўстонлик туманининг туризм истикболлари	134
Юлдашов К.М. Холмирзаев А. Ҳ.	Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни молиявий институтлар томонидан қўллаб-қувватланиши	136

#### **8- ШЎЪБА. ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МУАММОЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ**

Кадиров А.М.	Гастрономик туризм Ўзбекистон Республикасига сайёҳлар оқимини кенгайтириш омили сифатида	140
Мусаева Ш.А., Усмонова Д.И. Усманов Ф.Ш.	Особенности показателей производительности труда в сфере туризма	142
Tadjiyeva S.U.	Mehmonxonalarda marketing faoliyatining asosiy yo'nalishlari	146
Убайдуллаев К., Алымов А.К., Кусекеев Б. К.	Қорақалпоғистон Республикасида туризм ривожланишининг ҳозирги ҳолати	150
Navruz-zoda L.B., Najmiddinov S.N.	Ziyorat turizmning rivojlantirish istiqbollari Buxoro hududi misolida	152
Akhrorova N.U.	O'zbekistonda yoshlar turizmini rivojlantirish yo'llari	156
Butanova Dilnoza	Qishloq hududida agroturizmni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari	158
Djurayeva D.D.	Xizmatlar sohasining rivojlanishida innovatsiyalarning o'rni	160
Akramov Sh.Sh., Soliyeva D. F., Sapohonova G. F.	Mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda mehmonhonalarning o'rni	163
Ф.Т.Эгамбердиев Ҳ.Ё.Ёқубжонова	СПА меҳмонхоналарини барпо этиш имкониятлари ва ўзига хос жиҳатлари (Фарғона вилояти мисолида)	164
То'xtamishiev A.Q. Nimatov I. X. Qobulov I. R.	Turmahsulotni loyihalashda turistik tadbirlarning ahamiyati	166
Исомов Б.С. Рустамов Ж.Р.	Проблемы эффективного планирования туристического продукта	169
Jabborova F. A.	Turizmni rivojlantirishda muzeylarning o'rni	171
Bozorova S. K.	Reklamaning turizmdagi asosiy xususiyatlari	173
Ro'ziyev S. S. Axmatova M. E.	O'zbekistonda turizmni rivojlanishida gidlarning ahamiyati	176
Рустамова С.Х.	Туризмни ривожлантиришда бошқарув қарорларининг ўрни ва аҳамияти	177
Рузиев С.С.	Современное состояние туризма в Узбекистане	179
Исомов Б.С.	Этапы формирования и перспективы развития инфраструктуры туризма в Узбекистане	181
Арипова М.С. Хайитов Ш.	Туризмнинг барқарор таракқиётини режалаштириш зарурлиги	185